"TIQXMMI"
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INSON PSIXIKASI VA SHAXS RIVOJLANISHINING KOMPLEKS PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

COMPLEX PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF THE HUMAN PSYCHE AND PERSONALITY DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION.

II International Scientific Conference

MATERIALLAR TO‘PLAMI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

“RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INSON PSIXIKASI VA SHAXS RIVOJLANISHINING KOMPLEKS PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI” MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-AMAMLIY KONFERENSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2026-yil 1-aprel
1-QISM

II INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC "COMPLEX PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF HUMAN PSYCHOLOGY AND PERSONAL DEVELOPMENT IN THE CONDITIONS OF DIGITAL TRANSFORMATION"

COLLECTION OF MATERIALS

April 1, 2026
PART 1

Tashkent 2026

“Raqamli transformatsiya sharoitida inson psixikasi va shaxs rivojlanishining kompleks psixologik mexanizmlari” mavzusidagi II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami (2026-yil 1-aprel) – T.: © “TIQXMMI” - MTU bosmaxonasida chop etirishga ruxsat etildi, 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Dilrabo Muqumova, Gulmira Baykunusova, Alisher Jumanov, Gulnora Ziyavitdinova, Indira Raximova, Zulfiyaxon Kamolova, Sevara Yarova, Umida Jumamurodova, Vazira Ernazarova

Tahririyat hay’ati a’zolari

B.Mirzayev	*“TIQXMMI” MTU rektori, professor, tashkiliy qo‘mita raisi*
B.Xudayarov	*“TIQXMMI” MTU prorektori, professor, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari*
D.Muqumova	*“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi mudiri, dotsenti, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari*
G.Baykunusova	*“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi professor, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari*
A.Jumanov	*“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi dotsenti, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari*
G.Ziyavitdinova	*“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi dotsenti, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari*
I.Raximova	*“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi dotsent, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari*
Z.Kamalova	*“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi dotsenti, tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari*
L.Samiyev	*ITIIPKTB boshlig‘i, tashkiliy qo‘mita a’zosi*
S.Yarova	*“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchi PhD, tashkiliy qo‘mita a’zosi*
U.Jumamuradova	*“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi assistenti, tashkiliy qo‘mita a’zosi*
V.Ernazarova	*“TIQXMMI” MTU “Professional ta’lim” kafedrasi assistenti, tashkiliy qo‘mita a’zosi*

© “TIQXMMI” - Milliy tadqiqot universiteti Toshkent – 100000. Qori Niyoziy ko‘chasi 39-uy
© Mualliflar

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING SHAXSNING IJTIMOIY MAVQEIGA OID QARASHLARI

Haydarova Sarvinoz Saydullayevna
Termiz davlat universitet o‘qituvchisi

Shaxsning ijtimoiylashuvi ta’lim tarbiya ta’sirida inson psixologik funksiyalarining takomillashuvi, ijtimoiy -axloqiy qadriyatlar, xulq-atvor me’yor va qoidalarining o‘zlashtirilishi, dunyoqarashning boyish jarayoni va natijasidir. Ijtimoiylashuv jarayoni o‘zining sifat va xususiyatlariga ega, tarkibiga, qonuniyatlariga, omillariga, shart - sharoitlariga, boshqarilishiga va ijtimoiylashgan insonda namoyon bo‘lishiga ko‘ra murakkabdir. Ana shu sababli u o‘zida turli fanlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan ijtimoiylashuvning xilma-xil madaniy, axloqiy, xuquqiy, mehnat, psixologik ko‘rinishlarini aks ettiradi. Ijtimoiylashuvning quyidagi umumiy mexanizmlari mavjud; An’anaviy - oila va yaqin muhit orqali o‘quvchilarni ijtimoiy faollikka jalb etish, faoliyat va muloqotda maqbul shar- sharoitlarni yaratish. [2,b 5], Shaxsni o‘rganish muammosi kishilik jamiyatining barcha davrlarida muhim masala bo‘lib kelgan. Buning asosiy sababi birinchidan, har bir davrdagi ijtimoiy munosabatlar o‘ziga xos ravishda ijtimoiy mavqe jihatidan kimningdir yuqori darajada turishini taqazo etgan bo‘lsa, ikkinchidan, insonlarning hayot kechirish tarzi, ravnaqi, darajasi, farovonligi, baxtli turmush kechirishi shu yuqori mavqedagi shaxsga, uning turli fazilatlari va xislatlariga bog‘liq bo‘lganligidir. Mutafakkir ajdodlarimiz ta’limotida Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida aholining ma’naviy va psixologik jihatdan boshqarilishida fozil odamlar shahrida shahar aholisining stratometrik xususiyatlarga ko‘ra tabaqalanishi lozimligi uqtiriladi. Bunda jamiyat a’zolarining o‘zlarini boshqarishlarida jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarilishiga olib kelish lozim, lekin bu bilan bir vaqtning o‘zida har bir a’zo o‘z psixologik ma’naviy kamolotini usul hamda yo‘nalishiga ko‘ra yakkaxol tarzda mavjud bo‘ladi. “Shularning hammasini ikki yo‘l bilan olish mumkin. Birinchidan, yuqoridagi hodisalar aslida qanday mavjud bo‘lsa, inson qalbiga, ko‘ngliga o‘shanday o‘rnashib qolsa, boshqalarning ko‘nglida bu bilimlar qiyosiy yohud taqlid asosida vujudga keladi. Ba’zi odamlar o‘sha narsalarni o‘zlari his etishlari tufayli ko‘ngillarida shu bilimlar vujudga keladi”. Forobiy shuningdek, insonlarning yaxshi hayot kechirishi boshqaruvchi, ya’ni rahbar shaxsiga bog‘liq ekanligini, uning turli fazilatlari bu borada unga yordam berishini uqtiradi. [167,b 4], Xususan, Moturidiya maktabining asosochisi Abu Mansur al Moturidiy o‘z asarlarida din, jamiyat, jamoa, ijtimoiy munosabatlar va shaxs haqida ta’limotlar yaratib, ijtimoiy kompetentlikning inson shaxsi va mavqeyi masalasi, uni turli ijtimoiy siyosiy, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi “murosaviy muvozanat konsepsiyasi”ga asos soladi. U jamiyat va jamoani mohiyatan asoslab berishga harakat qiladi. “Al Moturidiy axloqiy tanlov, ixtiyor erkinligi haqida fikr yuritib, ularni jamoaga, guruhga qarshi bo‘lmasligi va shaxs davlatning va aksincha, shaxs

oldidagi mas’uliyatni alohida e’tirof etadi. U sotsiologik bilimlarning muhim komponenti hisoblangan jamoatchilik fikri yuzasidan fikr bildirib, islomiy e’tiqodi ham, hayotiy axloqiy sohalarda ham, mafkuraviy siyosatda ham insonlarning yakdillikka erishlarida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi”

O‘rta Osiyoning buyuk donishmandlaridan biri bo‘lmish Abu Rayhon Beruniy ham shaxs va boshqaruvchi shaxsi xususida o‘zining bir qator fikr mulohazalarini bayon etgan. U har bir kishiga baho berish uchun, uning qilgan ishini kuzatish mumkinligini ta’kidlaydi: “Har bir shaxsning bahosi o‘z ishini ajoyib bajarishidadir”. Beruniy o‘zining “Hindiston” asarida ushbu g‘oyani ilgari suradi: “Tabiati jihatidan boshqarish va siyosat ishlariga qiziquvchi, boshliq bo‘lishga fazilat va kuchi bilan haqli, fikr va maqsadda sabotli, davlatni o‘zidan keyingilarga qoldirib, ularning o‘z ota-bobolariga qarshi bo‘lmasliklarini maqsad qilib olgan kishi tomonidan berilgan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida turg‘un tog‘lar singari mahkam bo‘lib, u buyruqqa ko‘p vaqtlar va uzoq zamonlar o‘tsada, keyingilar ham bo‘ysunadilar”. Uning fikricha, tabiatan boshqarishga moyil bo‘lgan hokim o‘z fikri va qarashlarida qat’iy bo‘lishi, o‘z ishlarini amalga oshirishda donishmandlar tomonidan bildirilgan ilg‘or mulohazalarga bo‘ysunishi lozim. Beruniy o‘z insonparvarlik g‘oyalari bilan boshqaruv va rahbarlik psixologiyasi ta’limotlari rivojiga o‘z hissasini qo‘sha oldi. U insonlar orasida o‘zaro tushunish, tenglik va boshqaruvda adolatni himoya qilib chiqdiki, bu fikrlar hamisha ham qadrlidir. [73,34,b 2]

XI asrning yirik allomalaridan Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig”, ya’ni “Saodatga boshlovchi bilim” asarida boshqaruvchi shaxsi, ya’ni podsho xalq bilan birga va adolatli bo‘lishi lozimligi g‘oyasi ilgari suriladi. [37,b 3]Uning o‘git va nasihatlari hokimlarga qaratilgan bo‘lib, boshqaruvchi rahbar tevaragida tabiatan yaxshi niyatli, yuksak axloq sohibi bo‘lgan kishilar bo‘lgandagina, u to‘g‘ri ishlar qilishi, to‘g‘ri farmonlar chiqarishi mumkin, shundagina mamlakat farovon bo‘lib ravnaq topadi .Yusuf Xos Hojibning fikricha: “Kishi qanchalik yuqori martabaga erishmasin, u baribir kamtar bo‘lib qolishi lozim”

Buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temur ham katta bir saltanatning asoschisi, rahbari sifatida boshqarish va rahbarlik masalalariga oid kuchli tamoyillarni yaratgan. Uning tuzuklari o‘z davrining ijtimoiy voqeyligiga xos bo‘lgan stratometrik tuzilma hamdir. U o‘z tuzuklarida 12 ta ijtimoiy tabaqani farqlab beradi: 1) sayidlar, ulamo, mashoyix, fozil odamlar; 2) ishbilarmon, donishmand odamlar; 3) xudojo‘y, tarki dunyo qilgan kishilar; 4) noyonlar, amirlar, mingboshilar; 5) sipoh va raiyat; 6) maxsus ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotiblar; 8) hokimlar, tabiblar; 9) tavsir va hadis olimlari; 10) ahlihunar va san’atchilar; 11) so‘fiylar; 12) savdogar va sayyohlar. Amir Temur fikricha, bu toifa kishilarning taqdirini podshoh, xazina va askarlar hal qiladi. Ko‘rinib turibdiki, bu turlanish asosini tabaqaning ijtimoiy voqelikka nisbatan bo‘lgan munosabatlari va xulq-atvorlari tashkil etadi. Ijtimoiy hayotni boshqarishda bunday ijtimoiy-psixologik yondashuv Amir Temur uchun o‘z davrida katta bir

saltanatga asos solish imkonini bergan edi. Amir Temur davlatni boshqarish vositalari haqida to‘xtalib shunday yozadi: “Saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilish lozim: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat’iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik”. Uning fikricha: “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir”. Bundan tashqari, o‘rta bo‘g‘in rahbarlarini tanlash, ulardan hukumatni boshqarish ishlarida samarali foydalanishda uni nafaqat sinab ko‘rish lozimligi, balki rahbarning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy yo‘nalganligi, e’tiqodi, ehtiyoji, motivi kabilarni inobatga olish, bu rahbarlarni rag‘batlantirish, yuqori lavozimlarga ko‘tarish yoki jazolash usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi ham Amir Temur tuziklarida bayon etib berilgandir. [163,b1] Chunki bu tamoyillar hozirgi zamon demokratik huquqiy davlatlar xarakteriga mos keladi. Bu donishmandlarimizning rahbarlik uchun zarur bo‘lgan fazilatlar, davlatni idora etish uslubi va rahbarlik odobiga doir fikrlari ulkan ahamiyatga ega. O‘rganilayotgan mavzuga oid adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, sharq mutafakkirlari qarashlarini boyitgan holda,

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: “Фан”, 1972. – Б. 163.

2. Беруни Абу Райхан. Индия. Соч., т.2. – Т.: “Фан”, 1963. – С. 8. 20 Osha manba. – B. 125. 21 Osha manba. – B. 74. 36

3. Hayitov, O.E. Boshqaruv psixologiyasi: Darslik / O.E. Hayitov; Mas‟ul muharrir D.N. Arzikulov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Chirchiq: O‘zDJTSU, 2020. – 250 b. 37 bet

4. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 167

5. Munisa Sagdullayeva Shohida Hamidova Sharq mutafakkirlarining asarlarida, shaxs ijtimoiylashuv masalalarining yoritilishi. TMCI https: // cyberleninka.ru/article/n/

MUNDARIJA / CONTENTS

№ **KIRISH** 3

I-SHUBA: RAQAMLI MUHITDA SHAXS IDENTIFIKATSIYASI, IJTIMOIYLASHUV VA YOSHLAR PSIXOLOGIYASI

1 ***Шоумаров Ғайрат Бахромович***
РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ШАРОИТИДА АЙРИМ ПСИХОЛОГИК МУАММОЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ 6

2 ***Сафаев Нуриддин Салихович***
ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЦЕННОСТНЫХ ОРИЕНТАТSIИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ 9

3 ***Muqumova Dilrabo Inatovna, Abdullayeva Oliya Doniyarovna***
TALABALAR HAYOTI VA OMMAVIY TADBIRLAR: PSIXOLOGIYA, XULQ VA JAVOBGARLIK 13

4 ***Baykunusova Gulmira Yuldibayevna***
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MUHITIDA HASADNING NAMOYON BO‘LISH XUSUSIYATLARI 20

5 ***Raximova Indira Igorevna, Imomqulova Inoyat Abduqahhor qizi***
FAVQULODDA VAZIYATLARDA OMMAVIY XATTI-HARAKATLARNING PSIXOLOGIK TALQINI 23

6 ***Ziyavitdinova Gulnora Ziyautdinovna, Kurambayeva Gulsum Bahtiyarovna***
RAQAMLI MUHITDA O’SMIRLARDA SHAXS SHAKLLANISHIDA TOLERANTLIK VA INTOLERANTLIKNING O’RNI 27

7 ***Kamalova Zulfiya Xasanovna, Kadirova Shaxina Xikmatovna***
YOSHLAR SHAXSIY RIVOJLANISHIDA OILAVIY SEPARATSIYANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI 30

8 ***Olimova Maxfuza Bobir qizi***
KAM TA’MINLANGAN OILA FARZANDLARIDA REZILYENTLIK FENOMENI (QIYINCHILIK VA IMKONIYAT) 33

9 ***Maxamatova Dildora Orifovna***
O‘SPIRIN YOSHIDAGI PARASPORTCHILAR BILAN PSIXOLOGIK RIVOJLANTIRUVCHI ISH OLIB BORISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI 36

10 ***Jurayev Xaydarjon Odilboyevich***
BUGUNGI KUNDA JAMIYATDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASRIDA O‘SMIR YOSHLARNING RAQAMLI IDENTIFIKTASIYANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI 43

11 ***Raximova Indira Igorevna, Annayeva Arzygul Owliyakuliyevna***
RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA SHAROITIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING TRANSFORMATSIYASI NAZARIY TAHLILI 49

12 ***Закиров Нурлан Акимжанович***
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С НАСИЛИЕМ И НАСИЛИЕМ НА ПОЧВЕ ЧЕСТИ СОВЕРШАЕМЫХ ПОДРОСТКАМИ 52

244 ***Sadiqova Firuza Mahmudjanovna, Xatamjovov Begalijon***
TALABALARNING MUSTAQIL ISHINI INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH **1032**

245 ***Murodov Adham Ilhom o'g'li***
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA JADIDLAR PEDAGOGIK MEROSINING AHAMIYATI **1040**

246 ***N.J.Sagindikova, Z.J.Aymuratova***
YOSHLAR UCHUN RAQAMLI SOG'LOM TURMUSH STRATEGIYALARI: ONLAYN VA OFLAYN HAYOTNI MUVOZANATLASHTIRISH **1043**

247 ***Шарипова Шахло Садуллаевна, Тураева Хулкарой Мухаммаджоновна***
ВЛИЯНИЕ АЛГОРИТМИЧЕСКОЙ ПЕРСОНАЛИЗАТSIИ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ИДЕНТИЧНОСТИ ЛИЧНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАТSIИ. **1047**

248 ***Xalimov Zafar Xatamovich***
RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI FEEDBACK MEXANIZMLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI **1052**

249 ***Sadikova Firuza Mahmudjanovna, Abdug'apporov Ismoiljon Qayumjon o'g'li***
THE ROLE OF MEMES IN MODERN COMMUNICATION **1059**

250 ***Karimova Munira Ibodullayevna***
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR MUHITINING MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR IJTIMOIY PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIGA TA'SIRI **1064**

251 ***Saidakbarova Dilnoza Zuhritdinovna***
MTMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI **1069**

252 ***Kasimova Mashxura Mahamadaliyevna, Shodibayeva Firuza Nuritdinovna***
PSIXOLOGIK SALOMATLIK VA UNI SAQLASHNING ZAMONAVIY USULLARI **1074**

V-SHUBA: TARIXIY JARAYONLARDA SHAXS VA JAMIYAT MUNOSABATLARI: RAQAMLI QAYTA TALQIN IMKONIYATLARI

253 ***Dilrabo Muqumova, Kakayewa Mylayym***
TURKMAN MILLI AN'ANALARI - XALQ TARIXINING JONLI XOTIRASI. **1077**

254 ***To'rayev Shavkat Nishonovich***
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MA'NAVIY TAHDIDLAR VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI **1083**

255 ***Haydarova Sarvinoz Saydullayevna***
SHARQ MUTAFAKKIRLARINING SHAXSNING IJTIMOIY MAVQEIGA OID QARASHLARI **1089**

256 ***М.Б.Ахмедов***
РУКОПИСНЫЕ ИСТОЧНИКИ ПО ИСТОРИИ БАБУРИДОВ ХРАНЯЩИЙСЯ В ФОНДЕ ИНСТИТУТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ ИМ. АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ АН УЗБЕКИСТАНА **1092**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

“RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INSON PSIXIKASI VA SHAXS RIVOJLANISHINING KOMPLEKS PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI” MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2026-yil 1-aprel
1-QISM

II INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC "COMPLEX PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF HUMAN PSYCHOLOGY AND PERSONAL DEVELOPMENT IN THE CONDITIONS OF DIGITAL TRANSFORMATION"

COLLECTION OF MATERIALS

April 1, 2026
PART 1

Published: 20.04.2026. Font: “Times New Roman”.

DOI 10.5281/zenodo.19688996.

https://doi.org/10.5281/zenodo.19688997

Bosishga ruxsat etildi 60x84 1/16
Hajmi 72,3 b.t. Buyurtma №
“TIQXMMI” MTU bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent – 100000. Qori–Niyoziy ko‘chasi, 39 uy.